



KUCHLI RAQOBAT SHAROITIDA KORXONALARDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Umarova Xusnora Dilmurod qizi

Namangan muxandislik-texnologiya instituti

xusnoraumarova1707@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12818155>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatda kuchli raqobat sharoitida korxonalarining inqirozga qarshi tura olish, ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, zamonaviy menejment usullaridan samarali foydalanish hamda innovatsiyalarni joriy etish asosida pillachilik korxonalarida inqiroz jarayonlarini bartaraf etish va raqobat sharoitida milliy mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kuchli raqobat sharoiti, inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmi, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, pillani qayta ishlash korxonalari, zamonaviy menejment usullari.

Abstract: This article is about the ability of enterprises to cope with the crisis in the conditions of strong competition in the country, to improve the management mechanism in production enterprises, to diversify production, to effectively use modern management methods and to eliminate the crisis processes in cocooning enterprises based on the introduction of innovations, and to increase the competitiveness of national products in the world market in the conditions of competition were discussed.

Key words: Strong competitive environment, anti-crisis management mechanism, production diversification, cocoon processing enterprises, modern management methods.

Jahon mamlakatlarida sanoat korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. «Dunyo sanoatida Jahonda pilla mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda xomashyoni tayyorlash va uni qayta ishlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, pillachilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini kengaytirish hamda tayyor mahsulotni eksport qilishga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Inqirozning yuzaga kelish sabablari, korxonalardagi inqirozlarni boshqarish muammolari xorijiy olimlardan T.Sinxa va CH.Kastolarning tadqiqotlarida, tashxislash va inqirozga qarshi boshqaruvni prognozlashtirishning metodik jihatlari E.Altman, U.Biver, F.Bea, E.Dixtl, K.Druri, A.Makmin, D.Marshall, A.Tompson, D.CHampi, Dj.Evans va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.





Xalqaro pillani qayta ishlash korxona qo'mitasini ma'lumotlariga ko'ra, «dunyo bo'yicha pillani qayta ishlash sanoatida 80 ming tonnadan ortiq xom ipak ishlab chiqariladi. Jumladan, jahon bozoridagi xom ipak mahsulotlarini 82,2 foizi Xitoy, 15,7 foizi Hindiston, 0,65 foizi O'zbekiston, 0,36 foizi Tayland, 0,33 foizi Braziliya, 0,27 foizi Vetnam, 0,19 foizi Shimoliy Koreya, 0,17 foizi Eron, 0,09 foizi Fillipin, 0,02 foizi Bangladesh, 0,02 foizi Yaponiya davlatlariga to'g'ri keladi» [1]. Rivojlangan davlatlar ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, zamonaviy menejment usullaridan samarali foydalanish hamda innovatsiyalarni joriy etish asosida pillani qayta ishlash korxonalarida inqiroz jarayonlarini bartaraf etishga va kuchli raqobat sharoitida milliy mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga erishmoqdalar.

Dunyoda inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida korxonaning hayotiy tsikli davomida inqirozning yuzaga kelishiga doir nazariy yondoshuvlar, korxonalar moliyaviy barqarorligini tashqi va ichki muhit omillarini e'tiborga olgan holda tiklash, loyihaviy texnologiyalarni amalga oshirish, inqirozga qarshi boshqaruvning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish, inqirozga yuz tutish xavfini kamaytirish, inqirozni prognozlashtirish, inqirozga qarshi boshqaruvda strategiyalari ishlab chiqish va ularni qo'llashni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda pillani qayta ishlash korxonalarida inqirozga qarshi boshqaruvda zamonaviy menejment usullarini qo'llash, inqirozga qarshi innovatsion usullarni tadbqiq etish va inqirozga qarshi boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarida, ayniqsa pillani qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy nochorlikni bartaraf etish bo'yicha davlat tomonidan sud sanatsiyalari, subsidiyalar, preferentsiyalar, soliq, bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlar qo'llanib kelinmoqda.

Bugungi kunda sanoat korxonalarida texnika-texnologiyalarning ma'naviy eskirishi, qo'nimsizlik darajasining yuqoriligi, marketing xizmatining rivojlanmaganligi, hisob siyosatining to'g'ri yuritilmasligi, mahsulot sifati ko'rsatkichlarining xalqaro standartlarga muvofiq kelmasligi, reinvestitsiya siyosatining yuritilmasligi inqiroz holatini keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida "milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini





modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish" [2] bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Sanoat korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan davlat dasturlari inqiroz holatidagi korxonalarning ishlab chiqarish fondlarini yangilash bo'yicha investitsiyaviy qo'yilmalarni ajratilishini taqozo etadi. Davlat tomonidan tartibga solish jarayonida davlat va xususiy sektor hamkorligi ta'minlanadi. Hozirgi kunda innovatsion va integratsion hamkorlik, sanoat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash hamda tarmoqlarda klasterlarni joriy etish orqali inqirozga qarshi boshqaruv amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada rossiyalik olim A.S.Sidorenko subsidiarlik printsipligiga amal qilishni, ya'ni boshqaruv hamda resurslarni tasarruf etish funksiyasini eng quyi hududiy boshqaruv bo'g'iniga berish lozim, deya ta'kidlagan.

Buyuk Britaniya tarixida ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik ko'mir qazuvchi, po'lat va pillachilik sanoatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Inqirozni bartaraf etish maqsadida Markaziy Shotlandiyada moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, mahsulot ishlab chiqarish quvvatini oshirishni ta'minlovchi, kafolatlar berish, zayom chiqarish, soliq imtiyozlarini taqdim etish, ishchilarni moddiy qo'llab-quvvatlash kabi choralar qo'llangan [3].

Keskin inqiroz davri likvidlilik (ta'minlanganlik) inqirozidan boshlanadi. Korxonaning kreditorlar oldidagi qarzlar oshib, likvidlilik ko'rsatkichlari yomonlashadi. To'lovga noqobillik vaqtinchalik va surunkali turlarga bo'linadi. Birinchi holat to'lovlar muddatlari kelgan vaqtda debitorlik qarzlar to'liq qaytarilmaganligi sabab kreditorlar bilan hisob-kitoblar uchun pul mablag'larining mavjud emasligi yoki yetishmasligi tufayli yuzaga keladi, surunkali inqiroz vaqtida esa korxona o'z aktivlaridagi mol-mulkning yetishmasligi sabab mudatli majburiyatlarni bajara olmaydi. "To'lovga noqobillik" tushunchasi "likvidlilikning pasayishi" tushunchasiga yaqin bo'lib, ayrim mualliflar hatto ularni bir xil, deb hisoblashadi.

Ta'kidlash lozimki, har bir muallif o'z ishida oldinga qo'yilgan vazifaga qarab ko'rib chiqilayotgan atamaning u yoki bu tomonini ochib berishga intiladi. Shu bilan birga, turli nuqtai nazarlar ichida I.K.Larionov, N.I.Bragin, A.T.Aliev kabilardan iborat mualliflar jamoasi inqirozga qarshi boshqarish tushunchasini to'liqroq ochib bergan [6]. Ular inqirozga qarshi boshqarishni ikkita m'noda ko'rib chiqishadi. Keng ma'noda, inqirozga qarshi boshqarish – bu inqirozga qarshilik ko'rsatish nuqtai nazaridan iqtisodiyotning u yoki bu darajasida xo'jalik yuritish ob'yektini tizimli boshqarish. Tor ma'noda esa, inqirozga qarshi boshqarish – bu odatda to'lov qobiliyatining yo'qotilishida





namoyon bo'luvchi inqiroz holatiga tushib qolgan alohida korxonaga nisbatan qo'llaniladigan tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari tizimi bo'lib, bunda to'lov qobiliyatining yo'qotilishi davomli bartaraf etilmaydigan xususiyatga ega bo'lgan hollarda, unga bankrotlik tartiboti orqali barham beriladi. Tor ma'nodagi inqirozga qarshi boshqarish uchun korxonaning moliyaviy nochorligi faktini aniqlash katta ahamiyatga ega, bunda moliyaviy nochorlikni rasmiy aniqlash qonun yo'li bilan tartibga solinadi.

Inqirozga qarshi boshqarish – bu inqirozni bartaraf etish maqsadida boshqaruvchi sub'yektning ob'yektga muayyan usullar yordamida ta'sir etishi.

Inqirozga qarshi boshqarish ob'yekti sifatida tashkilotlar (korxonalar, firmalar,

kompaniyalar), tarmoqlardagi inqiroz holatlari ko'rib chiqadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, inqirozga qarshi boshqaruv maqsadlariga erishish uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- inqirozdan oldingi holatlarni prognoz qilish; tashkilot faoliyati rivojlanayotgan hayotiy tsikl bosqichini aniqlash va tashkilotning inqirozga uchrayotganligi belgilarini o'z vaqtida payqash;

- inqiroz holatlari sharoitida boshqarish vositalari va usullarini aniqlash;

- inqirozning salbiy oqibatlarini zaiflashtirish;

- inqirozga olib keluvchi sabablarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini izlab topish;

- inqirozga qarshi tadbirlarning samaraliligini asoslash.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. <http://inserco.org/en/statistics> (ISC).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son Farmoni.

3. Сидоренко А.С. Международный опыт антикризисного управления в проекции отечественной практики. Экономика и социум. №2 (45) 20 www.iupr.ru.

4. Ларионов И.К. Антикризисное управление: учебное пособие / И.К.Ларионов, Н.И.Брагин, А.Т.Алиев. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Дашков и Ко, 2005. - 292 с. (16-6).

5. Akbarov, G., & Sobirjonova, N. (2024). The Monetary Policy in the Development of Public-Private Partnership. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(3), 106-114.





6. Dodhomirzaevich, S. S., & Nemadjonovich, A. G. (2024). PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP CONCEPTUAL BASIS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 3(2), 29-34.
7. Akbarov, G., & Aliboyev, J. (2022). Development of Public-Private Partnership Relations in Uzbekistan. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(13), 125-131. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7461208>.
8. Akbarov, G. N. (2024). THE CONCEPTUAL FRAMEWORK OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN UZBEKISTAN. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 374–378. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10674709>.
9. Неъматджонович, А. Ғ. (2022). Давлат-хусусий шериклик: жаҳон мамлакатлари ва Ўзбекистон тажрибаси. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 215-219. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10682028>.
10. Ne'madjonovich, A. G. (2023). Public-Private Partnerships: Experiences of Foreign Countries. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2 (3), 222-224.
11. Gayratjon, A. (2024). Monetary Policy of the Country. American Journal of Current Tendency and Innovation, 1(1), 50-56.
12. Неъматджонович, А. Ғ., & Сайитбаев, Ш. Д. (2024). ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК ЛОЙИҲАЛАРИ ВА УЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Ustozlar uchun, 1(4), 431-437.

